

SAID AHMAD "UFQ" ROMANI

Bo'riyeva Nafisa

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika
universiteti Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi

Atabayeva Go'zal

O'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi haqida umumiy ma'lumotlar, roman-trilogiyada Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonliklari, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tarixiy jarayonlar, o'zbek xalqining matonati, vatanparvarlik tuyg'ulari, mehnatkashligi va romanning mazmun-mohiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, front va front orti, Vatan, Azizxon va Lutfinisa, Nizomjon va Dildor, Tursunboy, Zebixon Ikromjon va Jannat xola, qochoq, trilogiya va boshqalar.

Аннотация: В данной статье общие сведения о трилогии Саида Ахмеда «Горизонт», в романе-трилогии, о трудовом подвиге узбекских колхозников в тылу в огненные годы ВОВ, исторических процессах в годы ВОВ, дана информация о стойкости узбекского народа, патриотизме, о чувствах, трудолюбии и сути романа.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронт и тыл, Родина, Азизхан и Лутфиниса, Низамжон и Дильдор, Турсунбой, Зебихан Икромжон и Джаннат Хола, беглец, трилогия и др.

Annotation: In this article, general information about Said Ahmed's "Horizon" trilogy, in the novel-trilogy, the labor heroism of Uzbek farmers behind the front during the fiery years of the Second World War, historical processes during the Second World War, the fortitude of the Uzbek people, patriotism information about feelings, hard work and the essence of the novel is given.

Keywords: World War II, front and rear, Homeland, Azizkhan and Lutfinisa, Nizamjon and Dildor, Tursunboy, Zebikhan Ikromjon and Jannat Khola, fugitive, trilogy, etc.

O'zbek adabiyotida juda ko'plab romanlar yozilgan. Romanlar qanchalik ko'p bo'lmasin, S. Ahmadning "Ufq" romanini o'rganish adib ijodida ham, qolaversa, o'zbek romanchilik tarixida ham dolzarb. Asarning dolzarbligini- mazmun mohiyati jihatidan shiddatli davrni aks ettirilganligi bilan izohlash mumkin. "Ufq" romani XX asr millat hayotining o'n yillik davri – Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillar voqealarini o'z ichiga oladi. O'zbek adibi Said Ahmadning 1968-yilda "Sovet yozuvchisi" nashriyotida chop etilgan "Ufq" romanining birinchi kitobi " Qirq besh kun" deb nomalanadi, bunda Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek erkaklarining juda mard va jasur ekanligi so'zlanadi. Romanning ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida" deb atalgan bu kitobda urush qahramonlari jangda qahramonlik ko'rsatishsa, bularni kuzatib qolgan front ortidagi qahramonliklar ochib beriladi. Romanning uchinchi kitobi esa "Ufq bo'sag'asida deb" nomlanadi, bunda voqea tinchlik davrida, fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabadan keyingi dastlabki oylaridagi voqealar batafsil yoritilgan. Urush tugadi. Ammo kechagi front askarlari oldidan hayot yangi muammolarni qo'yadi. Ularni o'z uylarida O'rta Osiyoning suvsiz hududlarida dehqonlarning asosiy dushmani bo'lgan iqtisodiyotdagi e'tiborsizlik, qurg'oqchilikka qarshi o'jar va qiyin kurash olib boradi. Yozuvchi o'z qahramonlarini mashaqqatli hayot yo'llaridan o'tkazsa-da, ularning ishlari va orzularining yaxshi oqibati bo'lishiga ishonadi¹.

Inson har qanday holatda ham inson bo'lib qolishi kerak ekanligini uqtiradi bu roman. Asarda har xil qahramonlar taqdiri hikoya qilinadi. Unda ota -ona mehridan juda erka bo'lib o'sgan faqat o'zini o'ylaydigan Tursunboy ham , farzandlariga yetarli mehr bera olmay faqat mol-dunyo tashvishida yuradigan juda ham ziqna ota obrazi ham, farzandi qilgan gunohlaridan butun umri yuzi qora bo'lib qolgan va uni o'ldirishni xoxlab borib lekin o'ldirmagan Ikromjon ham, butun umr "bolam " deb yashagan Jannat xola ham, ziqna va bemehr bo'lgan ota qo'lida vijdonli va mehnatkash bola bo'lib o'sgan Nizomjon ham o'z o'rniga ega². "Ufq" romanida navqiron avlodni insonparvar, vatanni ulug'laydigan, uni asrab-avaylaydigan va himoya qiladigan vatanparvar shaxs sifatida kamol toptirishga da'vat etilgan. Romanda davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar ichida urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshlar: Azizxon va Lutfinisa, Nizomjon va Dildor, Tursunboy va Zebixon kabi tutashgan taqdirlar hayotidagi fojialar tasvirlangan. Tursunboy trilogiyasi qahramonlaridan biri misolida barcha zamon va davrlarning "buzilgan" yoshlarining salbiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Aftidan, ota-onalar farzandlari uchun mumkin bo'lgan va imkonsiz bo'lgan hamma narsani berib, unga mehr qo'yishdi. Qiyinchiliklardan keyin qahramonlarning yana sevgiga va sadoqatga ro'baro' bo'lishi, birinchi muhabbat davr va sinovlar qa'riga singib ketishini ko'rish, jonli tasvirlar orqali tarixiy ma'lumotlar bilan tanishish, ezilgan xalqning hayot mashaqqatlarini tushunish mumkin.

¹ Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971

² www.kh-davron.uz

Obrazlar³:

- Ikromjon — Jannatning eri, Tursunboyning otasi, bir oyog‘idan ajralgan, arzanda va qochoq o‘g‘lining o‘limini ko‘rgan jafokash ota
- Jannat — Ikromjonning xotini, arzanda o‘g‘il Tursunboyning onasi.
- Nizomjon — Ikromjonning tutingan o‘g‘li
- Tursunboy — Ikromjon va Jannatning o‘g‘li, qo‘rqoq va urushdan qochgan, ota va ona diydoridan uzoqda quvg‘indi bo‘lib otasining qo‘lida jon bergan kimsa
- Rayimberdi — rais
- Zebi — Tursunboy sevadigan qiz
- Azizxon — urush qahramoni

Asarda Tursunboy qilmishi qoralanadi, hatto otasi ham xiyonatkor o‘g‘ilni mahv etishga tayyor. Avvalo, ota-onadan ham ayb o‘tgan: ular yolg‘iz o‘g‘illarini erka, tantiq qilib o‘stirganlar. Bugun erka farzand ularni el orasida sharmisor qilyapti. Biroq bu ayblovlar zamirida urushni qoralash, bu qirg‘inbarotni o‘ylab chiqarganlarni la‘natlash yotibdi. Urush ota-onalarni farzand dog‘ida kuydirdi, bolalarni yetim qildi, mamlakatni xarobaga aylantirdi. Barcha baxtsizliklarning sababi - ana shu urush⁴.

Said Ahmad yaratgan obrazlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Ikromjon, Jannat xola, Azizxon, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilgan. Qochoq, qo‘rqoq, xoin so‘zlariga tomlab izoh keltirish mumkin, ammo Said Ahmad kabi bitta obraz orqali ozgina so‘z bilan ifodalagan ta‘sirni, tushunchani berib bo‘lmaydi, chunki izoh boshqa, tasavvur boshqa. «Ufq» trilogiyasi ham qamrov va hajm jihatidan ona tilimizning ifoda imkoniyatini namoyon qiluvchi katta maydondir.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi nafaqat yozuvchi ijodida, balki o‘zbek adabiyotida yangi janr hisoblanadi. Ijodining eng sermahsul davrida yozgan ushbu roman-trilogiyada yozuvchi Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o‘zbek dehqonlarining front orqasida ko‘rsatgan mehnat qahramonliklari haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muammolari haqida bahs yuritadi. Davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar og‘ushida urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshlar qalbi jo‘shqinlik va muhabbat tuyg‘ularidan yiroq emas: Azizxon va Lutfinisa, Nizomjon va Dildor, Tursunboy va Zebixon. Asarda o‘t-olov bo‘lib yongan oshiq-ma‘shuqlarning hech biriga visol nasib etmaydi. Qiyinchiliklardan keyin qahramonlar yana sevgiga, sadoqatga ro‘baro‘ bo‘lishadi, ammo birinchi muhabbat davr va sinovlar qa‘riga singib ketadi.

³ N.Shukurova va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O‘qituvchi", 1979, 53-59-betlar.

⁴ T.Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O‘qituvchi", 1979, 40-49-betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971; G'afurov I., Prozaning shoiri, T., 1984.
2. Ufq, T., 1976; Saylanma [3 j.li], 1982; Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000; Qorako'z majnun, T., 2001; Kiprikda qolgan tong, T., 2003.
3. V.G.Belinskiy. Adabiy orzular. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
4. N.Shukurova va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1979, 53-59-betlar.
5. T.Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1979, 40-49-betlar.
6. www.ziyonet.uz
7. www.turklib.uz
8. www.uz.wikipedia.org
9. www.kh-davron.uz
10. www.wikipedia.org